



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



O‘QITISHDA ANIMATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI (ADABIYOT DARSLARI MISOLIDA)

Abdulhayeva Muxlisa Sultonmurod qizi

Andijon davlat pedagogika institute 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy o‘qitish texnologiyalariga asoslangan ta’lim tizimida animatsion vositalardan foylanish kengaymoqda. Shu xususidan, maqolada animatsion vositalarning o‘qitishdagi ahamiyati, undan ko‘zlangan maqsadlar va bevosita adabiyot darslarida badiiy asarlarni o‘rganish uchun animatsion yondavushdan foydalanishning samarali jihatlari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: animatsiya, multimedia, animatsion yondashuv, vizual vositalar, ko‘rgazmalilik, obrazlilik, rasm, jadval, grafik, QR kod.

Kirish.

An’anaviy usullar har bir sohada o‘z ahamiyatini yo‘qotayotgan hozirgi davrda, ta’lim sohasi ham ushbu yangiliklardan, zamonaviy innovatsion vositalardan ta’sirlanmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Bugungi kunda o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanib ta’lim sifatini oshirish har bir fanning asosiy maqsadiga aylandi. Shuningdek animatsiya va multimedia vositalarining fanlarni o‘qitishdagi ahamiyati ham nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, adabiyot fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar, jumladan, animatsion va multimediyaviy vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism:

Animatsiya — alohida tasvirlarning yuqori tezlikda ketma-ket ko‘rsatilishidir. Ko‘rsatilgan harakatlanuvchi tasvirlarga bag‘ishlangan qisqa metrajli filmlar, badiiy filmlar, jonlantirilgan giflar va boshqa ommaviy axborot vositalaridan tashqari animatsiya video o‘yinlar, harakatlanuvchi grafikalar va maxsus effektlar uchun ham ishlatiladi.

Bugungi kunda ta’lim, fan sohalarida kompyuter animatsiyalarning qo‘llanilishi ularning ilmiy va amaliy jihatdan tushunilishini osonlashtirmoqda. Inson miyasi yangi ma’lumotlarni o‘rganganda, bir vaqtning o‘zida bir nechta sezgilarga murojaat qilishi ma’lumotni yanada xotirada yaxshi saqlanishiga va o‘rganishni osonlashtirishga yordam beradi. R. Mayerning multimedia o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, rasm va matn birgalikda taqdim etilganda o‘rganishning samaradorligi ortadi. [1] Psixolog G. Bruner ta’limda vizual vositalarning muhimligini ta’kidlab, “o‘rganishning asosiy bosqichlaridan biri bu ko‘rish orqali idrok etishdir” degan edi.[2] Shu boisdan ham, ko‘rgazmalilik tamoyiliga asoslangan o‘quv animatsiyalari o‘quv jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim maqsadlari uchun mo‘ljallangan animatsiyalar o‘quvchilarga ma’lumotni tezroq o‘zlashtirishga, ularni fanni ishtiyoq bilan o‘rganishga va sinf muhitini yanada jonli va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



qiziqarli qilishga yordam beradi. O‘quvchilarning yoshi va tasavvuriga mos va mavzuni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishga asoslangan animatsion yondashuv nafaqat ta’lim sifatiga, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, dunyoqarashining kengayishi va



XX asr boshlarida Toshkent

ijtimoiylashuviga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Adabiyot o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, badiiy asarni o‘rganishda ko‘rgazmalilik va obrazlilik muhim o‘rin tutadi. Animatsion yondashuv aynan shu tamoyillarga asoslanib, o‘quvchilarning idrok jarayonini faollashtiradi. Badiiy asarlarni o‘rganishda animatsion vositalardan foydalanish badiiy asardan ko‘zlangan asosiy maqsadni ikki barobar oshiradi. Eng avvalo, o‘quvchilarda badiiy asarga qiziqish uyg‘onadi, matnda ifodalangan voqea-hodisalarni visual tasvir orqali tasavvur qilish imkonini beradi, asar g‘oyasini o‘quvchi ongiga singishida yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot darsliklarining yangilangan versiyalariga rasm, jadval, grafika va QR kod havolalarining kiritilishi ham ta’limga animatsion yondashuvning bir misoli desak xato bo‘lmaydi. Misol uchun darslikda berilgan “Shum bola” qissasini olaylik. “Asarga tayyorlanamiz” qismida dastlab asarda tasvirlangan voqealar XX asr boshlarida Toshkent atrofidagi qishloqlarda bo‘lib o‘tgan haqida aytib o‘tilgan va o‘sha davrdagi shahar surati ilova qilingan. Bu bilan o‘quvchilarni davr muhitiga olib kirilgan.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Undan keyin esa asar syujetidagi bir voqeani ifodalagan rasm va uning chetida esa qissaning audio varianti QR kod shaklida taqdim qilingan. Mavzu oxirida asar bo‘yicha suratga olingan film havolasi ham berilgan. Bu yondashuv o‘quvchilarni asar dunyosiga olib kira oladi va hech qayoqqa chalg‘imasdan uni o‘rganishga undaydi.

Xulosa.

Umumiy olganda, ta‘limda qo‘llanilgan animatsion vositalar tomoshabinlarni ham hissiy ham intellektual jihatdan jalb qiladi. Animatsion yondashuv asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish va badiiy asarni chuqur anglashiga xizmat qiladi. Badiiy asar g‘oyasi orqali yoshlar ongida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotagan qadriyatlar, his-tuyg‘ular, fikrlar va g‘oyalarni shakllantirish nuqtayi nazaridan animatsiya kelajak avlodlar uchun samarali va ijodiy usullardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mayer.R. E. (2001). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
2. Ashurova. D. O‘quv animatsion lavhalarini tayyorlashning zamonaviy vositalari va ularning pedagogik ahamiyati. Global lingvistika: Yangi yondashuvlar va tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2025.
3. Qosimova K. Adabiyot ta‘limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
4. Umumiy o‘rta talim maktablarining 6-sinf adabiyot darsligi. Toshkent, 2022.

